

## 27-dars

### Darsning mavzusi: So‘z turkumlari. (118-121-mashqlar)

**Darsning ta’limiy maqsadi:** so‘z turkumlar haqidagi bilimlarini aniqlash va ular haqida ma’lumot berish; mashq va topshiriqlardagi matnlarni tinglab tushuna olish, so‘z turkumlari bilish, ularni ajrata olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarda o‘zaro hurmat , do’stlik hissini kuchaytirish; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug‘at) manbalardan ma’lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunib, o‘zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o‘rtoqlariga yordam berish; milliy qadriyatlarni bilish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** so‘z turkumlari va ularning so‘roqlarini bilish ko‘nikmalarini takomillashtirish; talaffuz me’yorlariga rioya qila oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi, o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo‘llay olish.

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat, analiz, “Blits so‘rov” metodi, ko‘rgazmalilik.

**Darsning jihozlari:** mavzuga oid turli mazmunli rasmlar, multimedia ilovalari.

#### Darsning borishi

##### I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga hozirlash.

##### II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.



##### Husnixat daqiqasi:

*Davlating- do‘sting*

Uyga berilgan vazifa o‘quvchilar daftari ko‘rib chiqiladi. Suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi. Savollar berilib, o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi. Javob bergen va husnixat asosida yozgan o‘quvchilar daftarlari namuna sifatida ko‘rsatilib rag‘batlantiriladi.

##### III. Yangi mavzu bayoni.

*Lug‘at diktant.*

*Tulpor, ketdi, o‘nta, yashil, mehribon, sekin, osh, kului, yigirma.*

*So‘zlar yozilgach, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi aniqlanadi.*

*O‘quvchilar topshiriqni bajaradilar va o‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar.*


**118-mashq.** Mashq shartiga ko‘ra bajariladi. To‘rtlikdagi so‘zlar so‘roqlar yordamida tahlil qilinadi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**119-mashq** Berilgan rasm asosida kichik hikoya tuziladi va sarlavha topiladi.

##### **Topshiriq**

##### **“Kim chaqqon” o‘yini**



**O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadilar , yuqoridaq topshiriq bajariladi**

##### **120-mashq**

Topishmoqlar toping. So‘z turkumlarini yodga oling. Ular qanday so‘roqlarga javob bo‘lar edi?

Ot

Sifat

Son

Fe’l

## **V. Darsga yakun yasash va baholash**

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

121-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOPE TISH UCHUN EMAS!